

O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHDA ONA TILI VA ADABIYOT FANINING O'RNI

Abdulazizova Navruza,

AVPYMO'MM Tillarni o'qitish metodikasi kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya

mazkur tezisda bugungi kun ta'limining asosiy maqsadi bo'lgan kreativ yondashuvni shakllantirish va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ona tili va adabiyot ta'limining o'rni va mohiyati ochib berilgan

Kalit so'zlar: kreativ zamonaviy yondashuv mantiqiylik nutq sofligi

An'anaviy ta'limda o'qituvchi ilm beruvchi, tarbiyalovchi, o'quvchi esa bilim oluvchi hamda tarbiyalanuvchi shaxs bo'lib, ta'limning asosini dars tashkil etadi. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining asosini esa muayyan fandan o'quv dasturiga ko'ra eng ko'p darajada ilm berish va egallash, ma'naviy jihatdan tarbiyalash tashkil qiladi.. Bugungi ta'limda o'quvchi faoliyatini jonlantirish, uning ijodiy qobiliyatini o'stirish, mustaqil amaliy ish yuritish malakasiga ega bo'lishini ta'minlash vazifasi muhim hisoblanadi.

Ifodali o'qish-adabiyot o'qitishda keng qo'llaniladigan metodlardan biri. Adabiy o'qish barcha janrlardagi adabiy asarlarni ifodali o'qish qoidalariga binoan ravon nutqda, ifodali, tushunarli va jozibali tarzda o'qishdir. Asarni ifodali o'qiyotgan o'quvchi shu asarning mazmunini tinglovchiga yetkazishga, undan badiiy zavq olishga ta'sir ko'rsatadi. Adabiyot darslarida hamisha ifodali o'qishdan foydalaniladi. Agar dars ifodali o'qish sifatida tashkil etilgan bo'lsa, bu metod sifatida namoyon bo'ladi. Agar dars ma'lum asar tahliliga bag'ishlangan bo'lsa, ifodali o'qish o'quvchilarni ma'lum ijodiy ishga yo'llash yoki muayyan bilimlar berishdagi o'qituvchi qo'llaydigan ta'lim vositasidir.

Sharhli o'qish-badiiy asar, undagi adabiy qahramonlar, tarixiy va to'qima voqealar haqida atroflicha tushuncha berishga mo'ljallangan usul. Sharhli o'qish usulidan klassik matnlarni o'rganish va tahlil qilishda foydalaniladi. O'qituvchi har bir bayt mazmunini sharhlab, tushuntiradi, izohtalab so'zlarga izoh beradi. Rollarga bo'lib o'qish usulidan sahna asarlarini yoki nasriy asarlarni o'rganishda foydalaniladi. Jo'r bo'lib o'qish usuli ta'limning boshlangan bo'g'inlarida qo'llaniladi va o'quvchini umuman kitob o'qishga o'rgatadi. Ssenariyli o'qish usulidan tayanch va yuqori sinflarda foydalaniladi. Matnni o'qib



o`rganish asosida ssenariy tuzish amalga oshiriladi. Bu usul matnni mustahkam o`zlashtirish va qayta hikoyalashga yordam beradi.

Ma`ruza metodidan asosan yuqori sinflarda foydalaniladi. Sarhisob mavzular, davrlarga obzor berish, ma`lum yozuvchining hayoti va ijodini monografik tarzda o`rganishda ma`ruza metodidan foydalaniladi.

Suhbat metodi adabiyot o`qitish metodlaridan biri bo`lib, unda darsning qurilishi o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi adabiy muloqotga asoslanadi va o`qituvchi-o`quvchi o`rtasida savol-javoblar, ayrim paytlarda munozaralar yetakchilik qiladi.

Tadqiqot metodi. Sinfda o`qib o`rganilgan ijodkor uslubining yangi qirralarini o`rganishda tadqiqot metodidan foydalaniladi. Tayanch sinflarda adabiyotni o`rganishda badiiy asar qismlari bo`yicha rejalar tuzdiriladi. Yuqori sinflarda esa monografik mavzularni o`rganish jarayonida o`qituvchi o`z ma`ruzasining rejasini beradi. Mazkur rejalarda belgilangan masalalarga oid adabiyotlar ko`rsatiladi. O`quvchilar qo`shimcha adabiyotlar, matbuot materiallari yordamida rejadagi masalalarni to`ldirgan holda o`rganadilar. Mustaqil holda, insho, bayon adabiy taqriz tayyorlaydilar.

Izlanish metodi. Bu metod tadqiqot metodiga o`xshab ketsa-da, undan farqli tomonlari ham bor. O`xshash jihati: har ikkala metod o`quvchilarning ijodiy izlanishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Farqli tomoni: tadqiqot metodini qo`llashda o`qituvchi boshlovchi, yo`naltiruvchi va darsni yakunlovchi sifatida harakat qilsa, izlanish metodida vazifalarni topshiruvchi va tekshirib, baholab, o`quvchilarni rag`batlantiruvchi sifatida ko`rinadi. Izlanish metodi adabiy konsepsiyalar, uchrashuvlar, nazariy darslarda o`quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini tayyorlashda (referat, taqriz, adabiy ijodiy ishlarda) ko`proq foydalaniladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning to`qqizinchi sessiyasida so`zlagan nutqida tarbiyachilarning o`zlariga zamonaviy bilim berish, ularning ma`lumotini, malakasini oshirish dolzarb masala bo`lib, ta`lim-tarbiya tizimini o`zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu ekani, zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o`zi ana shunday bilimga ega bo`lishi kerakligi xususida to`xtalgan edi. 1. Adabiyot o`qituvchisi o`quvchilardagi mustaqillikni, ijodkorlikni tarbiyalashda alohida rol o`ynaydi. Bu undan har bir o`quvchidagi alohida xususiyatlarni juda mukammal darajada sezishi, uning adabiyotga bo`lgan havasini oshirishda foydalanishini taqozo etadi. Abdulla Avloniy inson shaxsining kamol topishida, uning tarbiyasida muhim bo`lgan bir qator omillarni sanaydi: «Birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir.



Ikkinchi-maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur», deb javob beradi. Avval o`zlari "dorulmuallimin»larda o`qumaklari, so`ngra dars bermaklari lozimdur» Mudarrislar o`z vazifalarini bilub, nafslaridin kechub, zamong`a muvofiq ravishda darslarini istiloh qilub, imtihon birla o`qutmaklari lozimdur»...

O`qituvchi shaxsi haqida gap ketganda V.G.Belinskiyning quyidagi fikrlarini nazardan qochimaslik zarur: «Bola... o`smir, keyin esa yigit bo`lib yetishadi, qarabsizki, erkak ham bo`lib qoladi, shu boisdan uning qobiliyati takomilini kuzatib boring hamda, shunga ko`ra, tarbiya usullaringizni o`zgartiring, undan hamisha yuqori turing; aks holda, holingizga voy: bola siz bilan yuzma-yuz turib ustingizdan kuladi. Uni o`rgatar ekansiz, o`zingiz yana ham ko`proq o`rganing, aks holda, u sizni ortda qoldirib ketadi: bolalar tez o`shadi» .

O`qituvchining o`zi o`qitayotgan fan asoslarini mukammal bilishi, bil-ganlarini o`quvchilariga yetkaza olish darajasigina emas, hatto uning o`zini tutishi, nutqi ham o`ziga xos ahamiyat kasb etadi. M.V.Klarin bu haqda shunday deydi: «o`qituvchi tomonidan qo`llanadigan pauzaning davomiyligi singari «mayda narsa» o`quv dialogining, sinfdagi o`zaro hamkorlikning xarakteriga sezilarli ta`sir o`tkazadi» . Xuddi shu fikrlarni davom ettirib boshqa bir psixolog-metodist YE.V.Korotayeva shunday yozadi:

«Agar «javobni kutuvchi pauza» o`qituvchi tomonidan uch sekunddan besh sekundgacha cho`zilsa, mulohazalar soni ortadi, javoblarning davomiyligi ko`payadi, o`quvchilarning o`zlariga bo`lgan ishonchlari ko`tariladi, ularning mulohazalarida dalillar kuchayadi, muhokamaga o`qish darajalari unchalik yuqori bo`lmagan o`quvchilar ham qo`shila boshlaydi, bolalar orasidagi o`zaro hamkorlik kuchayadi va boshqalar» .

Yirik metodist olim A.Zunnunov ta`kidlaganiday: «Adabiyot o`qituvchisi har bir inson badiiy adabiyotsiz kamolotga erisha olmasligini o`z o`quvchilari ongiga, qalbiga singdirishi lozim. O`qituvchilik kasbi har bir adabiyot o`quvchisidan o`zini doimiy suratda kamol toptirib, o`zida badiiylikka moyillikni va ijodkorlikni o`stirib borishni talab etadi. U egallagan kasb jamiyatdagi ijtimoiy tuzum, ideologiya va madaniy hayotga bog`liq holda yangi ma`noga ega bo`lib boradi» .

Adabiyot o` asosiy kasbiy-pedagogik faoliyati qirralarini alohida o`rgangan R.Keldiyorov bu soha egalarida badiiy ijrochilik mahoratining mavjudligiga alohida e`tibor qaratadi . «Badiiy ijrochilik o`quvchiga hayot lavhalarida, adabiy asarning sirli manzaralarida go`zallikni ko`rsatishdan iborat. Bu borada har bir dars qayta takrorlanmaydigan o`ziga xos ijodiy jarayon bo`lib, o`qituvchi uning muallifi,



ijrochisi, rejissori sifatida o`z mahoratini namoyon etadi». Bu esa «o`quvchilarning estetik zavqini oshiradi, ularning tafakkurini, his-tuyg`ularini rivojlantiradi, ma`naviyatini shakllantiradi».

Adabiyot darslarini tasnif qilishda bir qator qarashlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalgani sifatida an`anaviy va noan`anaviy adabiyot darslarini ajratib ko`rsatish mumkin.

Adabiyotga oid darslarning shakllari ko`p. Eng ko`p tarqalgan turlar sifatida ma`ruza, suhbat, seminar, konferensiya, bahs-munozara, musobaqa va boshqa darslarni ko`rsatish mumkin.

Adabiyot darslarining nazariy jihatlari haqida M.I.Maxmutov, M. N. Skatkin, Y. K. Babanskiy, V. V. Golubkov, N. I. Kudryashev, O. Y. Bogdanova, G.I. Belenskiy, L. N. Lesoxina, L.S. Ayzerman, YE. N. Ilin, A.Zunnunov, M.Mirqosimova, Q.Yo`ldoshev, S.Matjonov va boshqa metodist olimlarning tadqiqotlari mavjud. Ularda adabiyot darslarini tashkil etishning o`ziga xos xususiyatlari, ularga qo`yiladigan zamonaviy talablar, adabiyot darslarida o`quvchilar faoliyatini yo`lga quyish va uni faollashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars samaradorligini oshirish, adabiyot darslarining ma`rifiy, tarbiyaviy, estetik jihatlari, badiiy asarni tahlil qilishda adabiyot darslarining o`mi va ahamiyati, bunda o`quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarini tashkil etishning yo`l va usullari haqida batafsil ma`lumotlar berilgan. Mazkur tadqiqotlar nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham o`qituvchilarimiz uchun dasturulamal bo`la oladi.

Adabiyot darslarida o`quvchilar bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish imkonlari mavjud. Xususan, guruh bilan va har bir o`quvchi bilan alohida ishlashning qo`shib olib borilishi yaxshi samaralar beradi. Adabiyot darslarida o`qituvchi shaxsining mavqei alohida o`rin tutadi. Aynan mana shu shaxs darsning maqsad va vazifalarini, adabiy materialni tanlashni, qaysi mavzularni o`tishda qanday metod va shakllardan foydalanishni belgilaydi, dars jarayonining tashkil etilishini boshqarib boradi.

Adabiyot darslarning oldiga qo`yilgan pedagogik vazifalarning yechilishidagi vositalar sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin: Adabiy materialning mazmuni.Uni o`rganish usullari.O`qitishning texnik vositalari.O`quvchilarning mustaqil ishlarini amalga oshirish imkonini beradigan didaktik materiallar.O`quvchilar faoliyatini tashkil etish..



Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Umumiy o'rta maktablarning davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi // Ona tili va adabiyot // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi-1999,1-maxsus son
2. A.Fulomov O'.Nematov. Ona tili ta'limi mazmuni – T: o'qituvchi,1995.
3. A.F'ulomov. Ona tili o'qitish jarayoni faollik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. – T., 1989.
4. A.ўулумов. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. – Т., 1992.
5. М.Абдураимова. Она тили таълимида янги педагогик технология. – Т., 2001.
6. Қ.Хусанбоева. ўқитишнинг замонавий методлари ва адабий таълим //Тил ва адабиёт таълими. – 2003, 2-сон.

